

III. SANOAT


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024- yil yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 5 223,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 109,8 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoatining – 33,3 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 1,0 % ni) , ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining -13,0 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 80,0 % ni) o'sishi kuzatildi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

(jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan % da)

2023- yil yanvar-mart



2024- yil yanvar-mart



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Ishlab chiqaradigan sanoat



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashi korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11,0 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqariladigan sanoat (qayta ishlash sanoati)

2024- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 4 178,4 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 80,0 % ni tashkil etdi.

2024- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

| Mahsulot nomi | 2024- yil yanvar- mart | 2023- yil yanvar- mart | Farqi, (+;-) |
|--|---------------------------|---------------------------|-----------------|
| Paxta tolasi, ming tonna | 12,6 | 9,0 | 3,3 |
| Chigit - ming tonna | 17,5 | 16,3 | 1,2 |
| Paxta linti - ming tonna | 0,7 | 0,7 | 0,0 |
| Omuxta yem, ming tonna | 4,4 | 8,3 | -3,9 |
| Un, ming tonna | 10,2 | 18,2 | -8,0 |
| Oʻsimlik yogʻi (tozalangan), ming tonna | 4,4 | 1,7 | 2,7 |

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti turlari (yirik korxonalar bo'yicha)

| Mahsulot nomi | O'lchov birligi | 2024- yil yanvar-mart | 2023- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da |
|---|-----------------|-----------------------|---|
| Yumshoq bug'doy va spelta uni | t | 10 206,1 | 56,1 |
| Kunjara va boshqa qattiq chiqindilar | t | 31 330,0 | 3,6 m. |
| Tozalangan o'simlik yog'i | t | 4 411,0 | 2,6 m. |
| Paxta tolasi | t | 12 638,3 | 140,2 |
| Paxta chigiti | t | 17 522,2 | 107,5 |
| Paxta linti | t | 686,4 | 101,1 |
| Xom ipak (pishitilmagan) | t | - | - |
| Paxtadan yigirilgan ip ishlab chiqarish | t | 11 872,8 | 105,3 |
| Mashinada yoki qo'lda to'qilgan boshqa trikotaj polotnolar | t | 884,9 | 3,9 m. |
| Erkaklar yoki o'g'il bolalar uchun ishchi va kasbiy komplektlar va kostyumlar, kurtkalar va pidjaklar | t | - | - |
| Trikotaj yoki to'qilgan ustki kiyimlar | ming dona | 132,4 | 58,8 |
| Ichdan kiyiladigan trikotaj kiyimlar | ming dona | 21 297,1 | 2,5 m. |
| Elektr energiyasi | mln. kVt/s | 1 498,8 | 86,8 |
| Issiqlik energiyasi | ming gkal | 47,2 | 2,1 m. |
| Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar | ming so'm | 32 478 532,0 | 145,9 |
| Oqava suvlarning shlami | ming so'm | 2 273 700,0 | 104,3 |
| Shahar xo'jaligining qayta foydalanishga yaroqli xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar | ming so'm | 13 638 000,0 | 2,8 m. |


**2024- yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

| Faoliyat turlari | mlrd. so'm | ulushi, % da |
|---|----------------|-----------------|
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 4 178,4 | 100,0 |
| oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish | 789,0 | 18,9 |
| ichimliklar ishlab chiqarish | 186,0 | 4,4 |
| tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish | 0,0 | 0,0 |
| to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish | 1 444,8 | 34,6 |
| kiyim ishlab chiqarish | 600,1 | 14,4 |
| teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish | 61,6 | 1,5 |
| yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish | 12,0 | 0,3 |
| qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish | 31,7 | 0,8 |
| yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish | 2,2 | 0,0 |
| koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish | 4,1 | 0,1 |
| kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish | 100,1 | 2,4 |
| asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish | 63,2 | 1,5 |
| rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish | 85,2 | 2,0 |
| boshqa nometal mineral mahsulotlari ishlab chiqarish | 195,1 | 4,7 |
| metallurgiya sanoati | 28,9 | 0,7 |
| mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish | 243,0 | 5,8 |
| kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish | 1,4 | 0,0 |
| elektr uskunalari ishlab chiqarish | 151,8 | 3,6 |
| boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish | 16,8 | 0,4 |
| avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish | 5,6 | 0,1 |
| boshqa transport uchkunallari ishlab chiqarish | 0,1 | 0,0 |
| mebel ishlab chiqarish | 49,6 | 1,2 |
| boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish | 103,6 | 2,5 |
| mashina va uskunalarini ta'mirlash va o'rnatish | 2,5 | 0,1 |

Ishlab chiqaradigan sanoat texnologik tarkibi

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,5 % ni (2023- yil yanvar-mart oylarida – 1,7 % ni), oʻrta-yuqori texnologiyalini ulushi 6,6 % ni (6,9 %), oʻrta-quyi texnologiyali ishlab chiqarishning ulushi - 13,4 % ni (11,4 %), quyi texnologiyali ishlab chiqarishning ulushi esa 78,5 % ni (80,0 %) tashkil etdi.

2024- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi boʻyicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da



Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 980,2 mlrd. soʻmni (jami ishlab chiqarilgan sanoat hajmining 18,8 % ni) tashkil etdi.

2024- yil yanvar-mart oylarida sanoatning mazkur tarmogʻida elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash bugʻ bilan taʼminlash tizimlari va havoni konditsiyalash oʻtgan- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,7 foizga kamayganligi kuzatildi.

Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

(2024- yil yanvar-mart)

| | 2024- yil | 2023- yil | 2023- yilga nisbatan, % da |
|---------------------------------|-----------|-----------|----------------------------|
| Elektroyenergiya - mln. kVt/s | 1 498,8 | 1 726,3 | -227,5 |
| Issiqlik energiyasi – ming Gkal | 47,2 | 22,7 | 24,5 |

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 54,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat hajmining 1,0 % ni) tashkil etdi.

Tuman(shahar)larning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi


Tuman (shahar)larning sanoat salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan izchil choralar natijasida Kosonsoy tumani (2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 109,1 % ga), Chust tumani (108,7 % ga), Chortoq tumani (108,3 % ga) hamda Namangan shahri (105,8 % ga) sezilarli darajada ishlab chiqarish fizik hajmi indeksining o'sishi ta'minlandi.

| | Sanoat mahsulotlari (mlrd. so'm) | Jamiga nisbatan ulushi, % da | 2023- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da |
|------------------------------|-------------------------------------|---------------------------------|--|
| Viloyat bo'yicha jami | 5 223,6 | 100,0 | 109,8 |
| Namangan sh. | 1 723,0 | 33,0 | 102,4 |
| Mingbuloq | 298,7 | 5,7 | 105,8 |
| Kosonsoy | 317,8 | 6,1 | 112,3 |
| Namangan t. | 283,2 | 5,4 | 98,4 |
| Norin | 87,8 | 1,7 | 118,4 |
| Pop | 110,2 | 2,1 | 100,4 |
| To'raqo'rg'on | 1 286,6 | 24,6 | 110,7 |
| Uychi | 270,7 | 5,2 | 103,6 |
| Uchqo'rg'on | 233,5 | 4,5 | 105,3 |
| Chortoq | 130,7 | 2,5 | 104,1 |
| Chust | 408,8 | 7,8 | 105,1 |
| Yangiqo'rg'on | 72,6 | 1,4 | 98,4 |

**Tuman(shahar)lar bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish
hajmi, indeksning o'sish sur'atlari**

(2024- yil yanvar-mart)

(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati % da)




Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 33,0 % ulushini), To'raqo'rg'on (24,6 %), Chust (7,8 %), Kosonsoy tumani (6,1 %), Mingbuloq tumani (5,7 %), Namangan (5,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning hududlarga nisbatan ko'rilganda, To'raqo'rg'on tumanida 5 235,3 ming so'm, Namangan shahrida 2 466,9 ming so'm, Mingbuloq tumanida 2 176,3 ming so'm, Namangan tumanida 1 466,5 ming so'm, Chust tumanida 1 428,2 ming so'm, Kosonsoy tumanida 1 390,7 ming so'mni tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan yuqori ko'rsatkichni tashkil etmoqda.

Tuman (shahar)lar kesimida aholi jon boshiga o'rtacha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining yuqori o'sish sur'atlari Norin tumanida (2023- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 116,2 %), Kosonsoy (109,7 %), To'raqo'rg'on (108,2 %), Mingbuloq (103,6 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, Yangiqo'rg'on tumanida (96,4 %) va Namangan tumanida (96,2 %) o'sishning past sur'atlari kuzatildi.

**Tuman(shahar)larning viloyatdagi jami sanoat ishlab
chiqarish hajmidagi ulushi, % da**
(2024- yil yanvar-mart)



**Tuman(shahar)lar bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va
iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda**
(2024- yil yanvar-mart)




**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi**


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 921,2 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 17,6 % ni tashkil etdi.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan sanoat
mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da.**


2023- yil yanvar-mart



2024- yil yanvar-mart



**Hududlar boʻyicha chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarini
sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da
(2024- yil yanvar-mart)**



**2024- yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat
mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va o‘shish sur‘atlari**


| | Aholi jon boshiga (ming so‘mda) | 2023- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da |
|-------------------------|------------------------------------|--|
| Viloyat bo‘yicha | 1 699,8 | 107,3 |
| Namangan sh. | 2 466,9 | 99,7 |
| Mingbuloq | 2 176,3 | 103,6 |
| Kosonsoy | 1 390,7 | 109,7 |
| Namangan t. | 1 466,5 | 96,2 |
| Norin | 498,2 | 116,2 |
| Pop | 466,9 | 98,5 |
| To‘raqo‘rg‘on | 5 235,3 | 108,2 |
| Uychi | 1 162,6 | 101,3 |
| Uchqo‘rg‘on | 1 257,5 | 103,2 |
| Chortoq | 607,0 | 101,9 |
| Chust | 1 428,2 | 102,9 |
| Yangiqo‘rg‘on | 305,5 | 96,4 |

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 292,0 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 43,9 % ni tashkil etdi.

Tuman (shahar) lar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Chortoq (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Yangiqo‘rg‘on (100,0 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush To‘raqo‘rg‘on (4,9 %), Uchqo‘rg‘on (25,4 %), Mingbuloq (31,3 %) tumanlarida kuzatildi.

Tuman va shaharlarning kichik biznesdagi ulushi, % da
(2024- yil yanvar-mart)



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dasturga kiritilgan 119 ta loyiha bo'yicha 441,1 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi.

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni
mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari**
(2024- yil yanvar-mart)

| Ko'rsatkichlar | 2023- yil yanvar-mart | 2024- yil yanvar-mart |
|--|--------------------------|--------------------------|
| Loyihalar soni, birlik | 107 | 119 |
| Korxonalar soni, birlik | 82 | 91 |
| Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm | 313,8 | 441,1 |
| Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln AQSH doll. | 2,7 | 7,0 |
| Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik | 364 | 504 |

**Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan
sanoat korxonalari**

Bugungi kunda viloyatda 4 526 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 1 628 tasi Namangan shahriga, 363 tasi Chust, 362 tasi Namangan, 354 tasi Kosonsoy, 322 tasi To'raqo'rg'on tumanlariga to'g'ri keladi.

2024- yil yanvar-mart oylarida viloyatda 217 ta sanoat sohasida korxonalar yangi tashkil etilgan bo'lib, ulardan 55,8 % Namangan shahri, Yangiqo'rg'on, Norin va Kosonsoy tumanlariga to'g'ri keldi.

**Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan
sanoat korxonalari soni, birlikda**
(2024- yil 1-aprel holatiga)

